

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT ARXITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD 26/26.01.2023.T.109.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
ARXITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI**

NIYAZOV VOHIDJON RO‘ZIEVICH

**GNSS ASOSIDA GEODEZIK TARMOQLARNI OPTIMALLASHTIRISH
USULLARINI ISHLAB CHIQISH (Konchilik obyektlari misolida)**

11.00.06 – Geodeziya. Kartografiya

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Samarqand – 2024

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on technical sciences**

Niyazov Vohidjon Ro'zievich

GNSS asosida geodezik tarmoqlarni optimallashtirish usullarini ishlab chiqish
(*konchilik obyektlari misolida*)..... 3

Ниязов Воҳиджон Рузиевич

Разработка метода оптимизации геодезической сети на основе GNSS
(*на примере горно – добывающих объектов*)..... 21

Niyazov Vohidjon Ruziyevich

Development of methods for optimizing the geodetic network based on GNSS
(*on the example of mining facilities*)..... 39

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 43

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT ARXITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD 26/26.01.2023.T.109.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
ARXITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI**

NIYAZOV VOHIDJON RO‘ZIEVICH

**GNSS ASOSIDA GEODEZIK TARMOQLARNI OPTIMALLASHTIRISH
USULLARINI ISHLAB CHIQISH (Konchilik obyektlari misolida)**

11.00.06 – Geodeziya. Kartografiya

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Samarqand – 2024

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.1.PhD/T2172 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Mirzo Ulug'bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.samdaqu.uz) va "ZiyoNet" axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz.) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Mirmaxmudov Erkin Raximjanovich
fizika matematika fanlari nomzodi, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Abbasov Subxon Burxonovich
geografiya fanlari doktori, professor

Tashpulatov Sarvar Anvarovich
texnika fanlari nomzodi, professor

Yetakchi tashkilot:

Qarshi muhandislik – iqtisodiyot instituti

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti huzuridagi PhD.26/26.01.2023.T.109.04 raqamli Ilmiy kengashning 2024 y. «30» mart soat 16 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 140147, Samarqand sh., Lolazor ko'chasi, 70-uy. Tel.: (0366) 237-15-93; faks: (0366) 237-26-30, e-mail: samdaqu@edu.uz.

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 240 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 140147, Samarqand sh., Lolazor ko'chasi, 70-uy. Tel. (0366) 237-06-06, e-mail: samdaqarm@edu.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil «18» 03 kuni tarqatildi.
(2024-yil «18» 03 dagi 2 raqamli reyestr bayonnomasi).



A.S. Suyunov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor

D.O. Jurakulov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, t.f.n., professor

S.B. Abbasov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash goshidagi ilmiy seminar raisi, g.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori PhD dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda, global sun'iy yo'ldosh texnologiyalaridan (GNSS) foydalanib ishlab chiqarish obyektlarini, sanoat zonalarini loyihalash va qurish, dinamik obyektlar joylashgan hududlarda tabiiy, texnogen jarayonlarni kuzatish uchun sun'iy yo'ldosh geodezik tarmog'ini loyihalash, qurish, oriyentirlash va matematik qayta ishlash usullarini ishlab chiqish va tadqiq qilish hamda hududda mavjud davlat geodezik tarmog'ini optimallashtirishda zamonaviy usullarni takomillashtirish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Bu borada BMTning Kosmosdan tinchlik maqsadlarida foydalanish qo'mitasining 50-sessiyasida "...GNSS texnologiyasi va geografik axborot tizimlaridan foydalangan holda hududlarning zilzilalar kabi baxtsiz hodisalar oqibatlarini hisobga oladigan deformatsiya modellarini ishlab chiqish"¹ zarur ekanligi alohida belgilangan. Har bir mamlakatning yagona koordinata tizimlari va GNSS koordinatalar tizimi o'rtasidagi o'tkazish parametrlarini aniqlash, sun'iy yo'ldosh nivelirlash usulidan foydalanib referents – ellipsoidiga oriyentirlash, sanoat zonalarini hududlarida joylashgan davlat geodezik tarmog'ini takomillashtirish va optimallashtirish uslubini amaliyotga joriy etish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Jahonda foydali qazilmalarni qidirish, muhandislik – tadqiqot ishlarida va sanoat zonalarining foydali qazilma karyerlar hududlarida yer tuzishda geodezik ishlarni amalga oshirish uchun davlat geodezik tarmog'ini loyihalashni optimallashtirilgan zamonaviy usullarini yaratish, foydali qazilma konlari sanoat zonalarining topografik kartalarini tuzish va uch o'lchamli fazoviy modellarini yaratishda aniqligi yuqori bo'lgan GNSS va tezkor usullarni qo'llashning yangi ilmiy-texnikaviy yechimlarini ishlab chiqishga yo'naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu sohada sanoat zonalarini joylashgan hududlar atrofida mavjud davlat geodezik tarmog'ini loyihalash, optimallashtirish, qurishda tarmoqning aniqligini oshirish, vaqt sarfini kamaytirishni ta'minlaydigan hamda davlat geodezik tarmog'idan foydalanish samaradorligini oshirishga qaratilgan tadqiqotlar muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Respublikamiz hududida mavjud foydali qazilma konlarining sanoat zonalarini hududlarida joylashgan davlat geodezik tarmog'ini optimallashtirishning dolzarb vazifalaridan biri undagi kerakli miqdorda davlat geodezik tarmoq punktlarining koordinatalari aniqligini oshirishda GNSS dan foydalanish borasida ijobiy natijalarga erishilmoqda. O'zbekiston Respublikasining "Geodeziya va kartografiya faoliyati" to'g'risidagi qonuni²da ta'kidlangan "davlat geodeziya, nivelir, gravimetriya tarmoqlarini, geodezik zichlashtirish tarmoqlarini yaratish, rivojlantirish va ishlash holatida saqlab turish" va ".....geodinamika tadqiqotlarini amalga oshirish" bo'yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi Farmonida³ «Geologiya-qidiruv ishlari hajmini keskin oshirish.....» vazifasi belgilangan. Mazkur vazifani amalga oshirish, jumladan, sanoat zonalarini,

¹ https://www.unoosa.org/pdf/reports/ac105/AC105_1022R.pdf

² O'zbekiston Respublikasining «Geodeziya va kartografiya faoliyati to'g'risida» gi qonuni. Toshkent sh., 2020 yil 2 iyul, O'RQ-626-son. (<https://lex.uz/docs/4880160>)

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 30 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi №PF-60 farmoni 1-ilovasi.

foydali qazilma konlarini qurish, ekspluatatsiya qilish, dinamik obyektlar holatini kuzatish va boshqa ishlarda foydalanish uchun davlat geodezik tarmog'ini optimallashtirish hamda punktlar koordinatalarining aniqligini oshirish va bunda GNSS usullaridan foydalanish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Navoiy kon-metallurgiya kombinati» davlat korxonasini isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida» 2020 yil 6 martdagi PQ-4629-sonli qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.12.2021 y. PQ-72-son «O'zbekiston Respublikasining 2022-2026 yillarga mo'ljallangan investitsiya dasturini tasdiqlash hamda investitsiya loyihalarini boshqarishning yangi yondashuv va mexanizmlarini joriy etish to'g'risida»gi Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining IV. «Axborotlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish hamda VIII. «Yer haqidagi fanlar» ustuvor yo'nalishlariga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Sohaga tegishli ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, davlat geodezik tarmog'ini optimallashtirish bo'yicha kompleks ilmiy-tadqiqotlar bo'yicha chet el va O'zbekistonda ko'plab ilmiy – tadqiqot ishlari olib borilgan. Binobarin, geodezik tarmoqlarni yaratish va optimallashtirish, tenglashtirish ishlarining nazariy va uslubiy asoslarini tadqiq qilishda A.Simokoei, T.Benzao, Z.Shaoring, G.Belwitt, E.W.Grafarend, Sh.Kuang, G.Schmitt va boshqalar tadqiq etishgan. Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlarida: Z.P.Tamutis, M.D.Gerasimenko, M.S.Molodenskiy, A.A.Izotov, P.S.Zakatov, V.P.Morozov, K.M.Antonovich, N.A.Teleganov, N.V.Yakovlev, V.D.Bolshakov, Yu.I.Markuze, V.V.Golubev, A.A.Genike, A.P.Gerasimov, E.G.Boyko va boshqa olimlar, shuningdek, marksheyderlik geodezik tarmoq yaratish bo'yicha Yu.J.Axmad, X.A.Moxamed, P.I.Baran, O.S.Raeva, A.L.Flyakovskiy, V.P.Morozova va boshqalar tadqiqot ishlarini amalga oshirgan.

O'zbekistonda geodezik tarmoqni o'rganishda E.R.Mirmaxmudov, X.Muborakov, S.A.Tashpulatov, A.S.Suyunov, T.M.Abdullaev, E.X.Isakov, D.O.Jurakulov, S.S.Sayidqosimov kabi olimlar faoliyat yuritishgan va ijobiy natijalarga erishganlar. Ammo yuqorida keltirilgan olimlar va tadqiqotchilar ilmiy ishlarida hozirgi kungacha dunyo miqyosida mavjud foydali qazilma konlari hududida joylashgan geodezik tarmoqni loyihalash, qurish, tarmoqni optimallashtirish va punktlar koordinatalarining aniqligini oshirishda zamonaviy metodlarni, jumladan, GNSS texnologiyasi, aero va kosmik metodlar, tabiiy jarayonlarni matematik modellashtirish masalalariga sustroq e'tibor berilgan. Shu sababli GNSS texnologiyalari va GAT dasturlaridan foydalanib geodezik tarmoqlarni yaratish va optimallashtirishning ilmiy asoslarini takomillashtirish zarurati paydo bo'ldi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi-ning ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.

Dissertatsiya tadqiqoti Mirzo Ulug'bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura - qurilish universiteti ilmiy - tadqiqot ishlari rejasining "GNSS asosida geodezik

tarmoqlarni optimallashtirish usullarini ishlab chiqish (konchilik obyektlari misolida)” mavzusidagi loyihasi (2019-2024 yy), Evropa ittifoqi tomonidan e’lon qilingan Erasmus Q 585718-ERR-1-2017-1-HUEPPKA2-CBHE-JP «DSinGis: Geoinformatika sohasida doktorantura» xalqaro loyihasi (15.10.2017-14.10.2020 yy), va O‘zMU ning “O‘zbekiston Respublikasi hududidagi geodinamik jarayonlarni yuqori aniqlikdagi geodezik o‘lchashlar asosida tadqiq qilish” (2022-2027 yy) mavzusidagi ilmiy – tadqiqotlar doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi GNSS, GAT va mavjud geodezik ma’lumotlar asosida konchilik obyektlari atrofida mavjud davlat geodezik tarmog‘i va zichlashtirish tarmog‘ini optimallashtirish usullarini ishlab chiqish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning vazifalari:

Topografik karta, GNSS va GAT asosida Muruntov karyeri atrofidagi davlat geodezik tarmoq aniqligini tadqiq qilish va tarmoqni optimallashtirish usullarini ishlab chiqish tadqiq qilish, optimallashtirishning matematik modelini takomillashtirish;

Muruntov sanoat zonasi hududining o‘ziga xos xususiyatlarini (geodinamik jarayonlar), va sun’iy yo‘ldoshlarining geometrik omillarini hisobga olib, GNSS asosida tarmoqning optimal joylashish sxemasini takomillashtirish;

zamonaviy sun’iy yo‘ldosh navigatsion GNSS o‘lchashlari va GAT dasturlari asosida davlat geodezik tarmog‘i punktlari koordinatalarining aniqligini oshirish metodikasini takomillashtirish;

GAT dasturlari asosida Muruntov karyeri hududining 3D fazoviy modelini ishlab chiqish.

Tadqiqot obyekti sifatida Muruntov karyeri hududlardagi mavjud geodezik tarmoqlar olingan.

Tadqiqotning predmeti GNSS asosida davlat geodezik tarmog‘i va zichlashtirish tarmog‘ini optimallashtirish masalalari tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Ushbu tadqiqot ishini bajarishda geodezik o‘lchashlar GNSS va geodezik tarmoqlarni optimallashtirish usullari, geodezik o‘lchashlardan olingan ma’lumotlarni tenglashtirishda matematik qayta ishlash hamda zamonaviy geodezik va GAT dasturlaridan foydalanib, tahlil qilish uslublaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

topografik karta, GNSS va GAT asosida Muruntov karyeri atrofidagi davlat geodezik tarmog‘ini optimallashtirishning matematik modeli takomillashtirilgan;

Muruntov sanoat zonasi hududining geodinamik holatini va sun’iy yo‘ldoshlarining geometrik omillarini hisobga olib GNSS asosida geodezik tarmoqning optimal joylashish sxemasi yaratilgan;

zamonaviy sun’iy yo‘ldosh navigatsion GNSS o‘lchashlari va GAT dasturlari asosida davlat geodezik tarmog‘i punktlari koordinatalarining aniqligini oshirish metodikasi ishlab chiqilgan;

GAT dasturlari va dala geodezik o‘lchash natijalari asosida Muruntov karyeri hududining to‘g‘ri burchakli va geografik koordinatalar farqini inobatga olib 3D fazoviy modelini yaratish usullari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

topografik karta, sun'iy yo'ldosh navigatsion o'lchashlari va geoaxborot dasturlari asosida Muruntov karyeri atrofidagi davlat geodezik tarmog'i modellashtirilib optimallashtirishning matematik modeli takomillashtirilgan;

Muruntov sanoat zonasi hududining geodinamik holatini va sun'iy yo'ldoshlarining geometrik omillarini hisobga olib geodezik tarmoq punktlarining optimal joylashish sxemasi takomillashtirilgan;

sun'iy yo'ldosh navigatsion o'lchashlari va geoaxborot dasturlari asosida davlat geodezik tarmog'ining aniqligini oshirish algoritmini ishlab chiqish orqali metodika takomillashtirilgan;

geodezik o'lchash natijalari va karyer atrofidagi geodezik tarmoq punktlarining to'g'ri burchakli va geodezik koordinatalarini e'tiborga olib, GAT dasturlari asosida karyer relyefining raqamli 3D modeli yaratildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ochiq ma'lumotlar portalida joylashgan barcha vazirlik va idoralarning ochiq ma'lumotlari, xususan, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi, Respublika aerogeodeziya markazi Samarqand hududlararo bo'linmasi, O'zbekiston Respublikasi Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi, O'zbekiston Respublikasi «Navoiy kon-metallurgiya kombinati» aksiyadolik jamiyati, Samarqand viloyati «SAMGEODEZIST» MChJ korxonasi, «ELLIPS UDP» MChJ korxonasining ochiq raqamli materiallaridan, shuningdek, muallifning tadqiqot doirasidagi tajriba-sinovlari xulosalaridan foydalanilganligi, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi hamda vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati optimallashtirishning matematik modeli takomillashtirilganligi va geodezik tarmoq konfiguratsiyasini tuzishda hududining geodinamik holatini va sun'iy yo'ldoshlarining geometrik omillarini hisobga olish kerakligi asoslanganligi, sun'iy yo'ldosh navigatsion o'lchashlari va geoaxborot dasturlari asosida davlat geodezik tarmog'ining aniqligini oshirish metodikasi ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati konchilik obyektlari atrofidagi geodezik tarmoqlarni optimallashtirish bo'yicha amaldagi me'yoriy normalarni takomillashtirilganligi va geoaxborot dasturiy ta'minotlari yordamida tog' – kon obyektlari atrofidagi davlat geodezik tarmoqlar o'lchash natijalarini qayta ishlash uchun ma'lumotlar bazasi ishlab chiqilganligi va geodezik o'lchash natijalari va karyer atrofidagi geodezik tarmoq punktlarining to'g'ri burchakli va GAT dasturlari va dala geodezik o'lchash natijalari asosida Muruntov karyeri hududining 3D fazoviy modelini yaratilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. GNSS asosida geodezik tarmoqlarni optimallashtirish usullarini ishlab chiqish bo'yicha olingan natijalar asosida:

topografik karta, GNSS va GAT asosida Muruntov karyeri atrofidagi davlat geodezik tarmog'ini optimallashtirishning matematik modeli takomillashtirilganligi O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya Vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining Respublika aerogeodeziya markazi Samarqand hududlararo bo'linmasiga joriy qilindi (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya Vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining 2023 yil 30 avgustdagi 79-sonli ma'lumotnomasi).

Natijada, ushbu matematik model va formulalar asosida tog' – kon ob'ektlari atrofidagi davlat geodezik tarmoqlarini tezkor ravishda optimallashtirish imkoniyati paydo bo'lgan;

Muruntov sanoat zonasi hududining geodinamik holatini va sun'iy yo'ldoshlarining geometrik omillarini hisobga olib GNSS asosida geodezik tarmoqning optimal joylashish sxemasi yaratilganligi O'zbekiston Respublikasi Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligining O'zbekiston Respublikasi Geologiya Davlat qo'mitasi huzuridagi kon-geologiya faoliyatini nazorat qilish inspeksiyasining Samarqand-Buxoro viloyat inspeksiyasi faoliyatiga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligining 2023 yil 26 sentyabrdagi 08-2902-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, Muruntov karyeri sanoat zonasi hududida geodinamik holatini tezkor tahlil qilish va seysmik – tektonik jarayonlarni prognoz qilish, tegishli chora – tadbirlar rejasini tuzish hamda strategik rejalarni ishlab chiqish imkonini yaratgan;

zamonaviy sun'iy yo'ldosh navigatsion GNSS o'lchashlari va GAT dasturlari asosida davlat geodezik tarmog'i punktlari koordinatalarining aniqligini oshirish metodikasi ishlab chiqilganligi O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining Respublika aerogeodeziya markazi Samarqand hududlararo bo'linmasiga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining 2023 yil 30 avgustdagi 79-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu natijalardan koordinatalar tizimlari orasidagi bir tizimdan boshqa tizimga o'tkazishda parametrlar uchun tuzatma sifatida foydalanish orqali Muruntov karyeri atrofidagi geodezik planli va balandlik tarmoq punktlarining koordinatalarining aniqligi 10 – 15% ga oshdi;

GAT dasturlari va dala geodezik o'lchash natijalari asosida Muruntov karyeri hududining to'g'ri burchakli va geografik koordinatalar farqini inobatga olib 3D fazoviy modelini yaratish usullari ishlab chiqilganligi O'zbekiston Respublikasi Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligining O'zbekiston Respublikasi Geologiya Davlat qo'mitasi huzuridagi kon-geologiya faoliyatini nazorat qilish inspeksiyasining Samarqand-Buxoro viloyat inspeksiyasi faoliyatiga joriy qilindi (O'zbekiston Respublikasi Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligining 2023 yil 26 sentyabrdagi 08-2902-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, karyer sanoat zonasi hududining maydoni va qazilma hajmini hisoblash, xavfli tabiiy jarayonlarning tarqalish arealini modellashtirish imkoniyati yaratilgan. Shuningdek, joriy qilinayotgan ushbu usul o'lchash vaqtini va o'lchashlarda yuzaga keladigan murakkabliklarni 15-20% gacha kamaytirish imkonini yaratadi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur ishning tadqiqot natijalari 7 ta xalqaro va 3 respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 18 ta ilmiy ish chop etilgan bo'lib, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalarning asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 maqola, jumladan, 5 tasi respublika va 3 tasi xorijiy ilmiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 110 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya tadqiqotining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekt va predmeti shakllantirilib, tadqiqotning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan. Olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyatlari, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinganligi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Karyer atrofidagi geodezik tarmoqlarining aniqligini tadqiq qilish”** deb nomlangan birinchi bobida Muruntov hududining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash va ularni geodezik punktlarga ta'sirini tadqiq qilish, Muruntov karyeri atrofidagi mavjud geodezik tarmoq punktlarining signallarning texnik holatini va koordinatalari aniqligini tahlil qilish, geodezik tarmoqni optimallashtirishda GNSS texnologiyasi va GAT dasturlaridan foydalanishni tadqiq qilish, karyer atrofidagi geodezik tarmoqni optimallashtirishning metodologik asoslarini tadqiq qilish yoritilgan.

Muruntov karyeri sanoat zonasi hududidagi geodezik tarmoqni optimallashtirishda hisobga olinishi zarur bo'ladigan omillar tahlil qilindi. Ilmiy – texnik manbalar, dala tadqiqotlari, kartografik materiallar asosida Muruntov hududining o'ziga xos xususiyatlari o'rganildi. Unga ko'ra hududa Kon qazish ishlarining natijasida turli yo'nalishdagi (mahalliy) tektonik yoriqlar yuzaga kelgani aniqlandi. Ulardan eng kattasi – kengligi 0,3 dan 12 m gacha bo'lgan shimoli-sharqqa yo'nalgan yoriqlar qayd etilgan. Shuningdek, ularni geodezik punktlarga ta'siri tadqiq qilindi. Tahlil natijalariga asosan Muruntov hududidagi geodezik punktlarining yillar davomida tabiiy va texnogen omillar ta'sirida juda katta darajada shikastlanganligi, punktlar buzilib ketganligi, bazi bir punktlarning deformatsiyaga uchraganligi sababli tarmoq aniqligi talab darajasida emasligi aniqlandi.

Muruntov karyeri sanoat zonasi hududi eni 23,33 km, uzunligi 42,13 km bo'lib umumiy maydoni 982,8929 km.kv. ga teng ekanligini inobatga oladigan bo'lsak va hududga tegishli kartalar aniqligini oshirish uchun ushbu hududda davlat geodezik tarmog'i bo'lishi kerak. Me'yoriy – texnik hujjatlarga asosan hududda o'rnatiladigan davlat geodezik tarmog'i 982,8929 km.kv. maydonga 1-sinf geodezik tarmoqning punktlari 20 ta, 2-sinf 49 ta, 3-sinf 86 ta va 4-sinf 196 ta punktlar o'rnatilishi kerak. Lekin Muruntov karyeri atrofidagi mavjud geodezik tarmoq punktlarining, signallarning texnik holatini va koordinatalari aniqligini tahlil qilish maqsadida hududga tegishli topografik kartalar, rekognosirovka, dala GNSS o'lchash geodezik materiallarini o'rganilishi natijasida karyer atrofida jami 19 ta davlat geodezik punktlari borligi aniqlandi, bugungi kunda ushbu punktlarning 14 tasi yaxshi saqlanib qolingani aniqlandi. Shuningdek, ushbu punktlar barqarorligi GNSS yordamida tekshirilganda zaif punktlarning mavjudligi aniqlandi.

Maqsadli olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, Muruntov karyeri sanoat zonasi hududida mavjud geodezik tayanch tarmoqlarni turli tashkilotlar tomonidan,

har xil koordinatalarda va turli vaqtlarda yaratilganligi aniqlandi. Maqsadli tadqiqotlar natijalari asosida, Muruntov karyeri sanoat zonasi hududidagi geodezik tayanch tarmoqni optimallashtirish orqali tarmoqning aniqligini oshirish maqsadga muvofiq degan xulosaga kelindi.

Dissertatsiyada sun'iy yo'ldosh texnologiyalari orqali Muruntov karyeri sanoat zonasidagi geodezik tarmoqni optimallashtirish parametrlari sxemasi berilgan. Ushbu sxemaga asosan, sun'iy yo'ldosh texnologiyalari orqali geodezik tarmoqni optimallashtirishning asosiy parametrlari aniqlik, ishonchlilik va tejamkorlikdan iborat bo'lib, u tarmoq o'lchashdagi tasodifiy xatolarni tarqatish, model xatolarini aniqlashda ortiqcha o'lchashlarning xususiyatlarini inobatga olib, kerakli variantni tanlash va narxini, ya'ni tayanch punktlarini qurish, o'lchashlarni amalga oshirish, tashish hamda boshqalarning narxini ifodalashi zarurligi ushbu bobda tahlil qilindi.

Dissertatsiyaning "**Karyer atrofidagi geodezik tarmog'ini loyihalash usulini ishlab chiqish**" deb nomlangan ikkinchi bobida Muruntov karyeri sanoat zonasi hududidagi geodezik tarmoqni optimal loyihalashning metodikasini ishlab chiqish, Muruntov geodezik tayanch tarmog'ini loyihalash, Muruntov karyeri sanoat zonasi hududining geodinamik holatini va sun'iy yo'ldoshlarining geometrik omillarini hisobga olib, GNSS asosida geodezik tarmoqning optimal joylashish sxemasini takomillashtirish, Muruntov karyeri sanoat zonasi hududida joylashgan geodezik tarmoq loyihalarini optimal variantini tanlash kabi masalalar asoslangan.

Tadqiqot davomida karyerning sanoat zonasi hududidagi geodezik tarmoqlarni loyihalash, qurish bo'yicha an'anaviy me'yorlar asosida GNSS qurilmasini imkoniyatlarini hisobga olgan holda yangi me'yoriy talablar ishlab chiqildi. Taklif qilinayotgan yangi me'yoriy talablarda geodezik tarmoqlarni optimallashtirish uchun geodezik o'lchashlar bosqichlar sonini kamaytirilishiga erishiladi (1-jadval).

1-jadval


Muruntov karyeri atrofidagi geodezik tarmog'ini loyihalash qurish bo'yicha me'yoriy talablar

Tarmoq sinfi	m_β	m_L/L	M_{I-J}/S	O'KX
MTT	1,0"	1:500 000	1:250 000	1 sm – 4,5 km
MZT	3,0"	1:50 000	1:25 000	2,5 sm – 500 m
MSA	5,0"	1:10 000	5 sm – 200 m	

Ishlab chiqilgan yangi me'yoriy talablardan foydalanib, Karyerning sanoat zonasi hududidagi geodezik tarmoqlarni optimallashtirish orqali geodezik o'lchash vaqtini va o'lchashlarda yuzaga keladigan murakkabliklarni 15-20% gacha kamayishi imkoniyati yaratildi.

Muruntov geodezik tayanch tarmog'ini loyihalashda, dastlab hududning 1:500000, 1:200000 va 1:100000 masshtabli topografik kartalarini o'rganilishda karyer joylashgan hudud atrofida triangulyatsiya usulida o'rnatilgan 48 ta davlat geodezik to'rlarining tayanch punktlari belgilanib tadqiq qilindi. Bunda Muruntov karyeri joylashgan hududga yaqin joylashgan (Murun, Sardara, Kurgantov, Aktay,

Balpantov va Djungildi) davlat geodezik tarmoqning tayanch punktlar joylashgan hududning umumiy maydoni 8395 km.kv. (83948,0521 ga), umumiy perimetri 217, 421 km, eng balandi “Aktay” (balandligi 974 m) va “Murun” (balandligi 792 m) geodezik tayanch punktlari bo‘lib, ushbu geodezik tayanch punktdan turib qaralganda karyer atrofida joylashgan 20 km radiusdagi barcha geodezik tayanch punktlar yaqqol ko‘rinadi (1-rasm).




1-rasm. Muruntov karyeri atrofidagi 1-sinf geodezik tayanch punktlarning joylashuv holati: a) 1:200 000 va b) 1:100 000 masshtabli topokartalarning bir qismi

Muruntov karyeri uchun belgilangan punktlarning koordinatalarini hisoblash uchun geodezik zichlashtirish tarmog‘ining optimal sxemasini tuzishga imkon beruvchi modeli hisoblashlar amalga oshirildi. Bunda Muruntov karyeri sanoat zonasidagi geodezik tarmoq sxemasini optimallashtirishda dastlab, 1:500 000, 1:200 000 va 1:100 000 masshtabli topografik kartalarda tayanch punktlarning joylashuv sxemasi tuzib olindi (1-rasm). Undan keyin punktlar koordinatalari asosida hududning kosmik suratida tarmoq sxemasini modellashtirish sxemasi tuzildi va aniqligi hisoblandi.

Unga ko‘ra dastlab “Google Earth Pro” dasturidan foydalanib, 5 ta tayanch punktlar (Besapan sev., Murun, Djanaxmed, Sardara va Besapan yuj.) 1-sinf tarmog‘i sifatida olindi. So‘ngra 4 ta (Besapan sev., Murun, Sardara va Besapan yuj.) punktlari orasida geodezik to‘rtburchak va 3 ta punktlar (Murun, Djanaxmed va Sardara) orasida uchburchak shakllarda sxemalari tuzilib modellashtirildi. Shuningdek, ushbu yaratilgan tarmoq ichida boshqa 2-3 va 4-sinflar punktlarining joylashuv sxemalari tuzilib modellashtirildi.


Muruntov karyeri sanoat zonasi hududining fizik-geografik sharoitlari, geodinamik jarayonlarini e‘tiborga olgan holda geodezik tarmog‘i modellashtirildi (2-rasm). Bunda, hududning fizik-geografik sharoitlari, geodinamik jarayonlari sababli tayanch va aniqlangan geodezik punktlar orasidagi bir xil burchaklar va masofalarni o‘lchash qiyin, shuning uchun geodezik tarmoqni o‘lchash ishlarini bajarishda aniqlik xususiyatlariga mos ravishda o‘zgartirish, optimallashtirish kerakligi t‘akidlandi.

Muruntov karyeri sanoat zonasi hududining gorizontalarini deformatsiyalarni o‘rganish uchun mahalliy planli geodezik tarmoq punktlari qo‘llaniladi. Ularning turi va usuli (o‘rnatish shakli – sxemasi) 2–rasmda keltirilgan.



3-rasm. Bazis tomon uzunligini aniqlashning O'KX ning grafigi.

Muruntov karyeri sanoat zonasi hududida Muruntov geodezik tayanch tarmog'ining kichik bosqichini (geodezik zichlashtirish tarmog'i) yaratish uchun olib borilgan GNSS o'lchashlarda hududda joylashgan 4-sinf davlat geodezik tarmog'ining punktida (Kanavniy) GNSS ning PDOP qiymati 7,303 aniqlandi. Amaldagi me'yoriy talablarga asosan PDOP qiymati 4 gacha bo'lishi, shuningdek, punkt yaqinida (1-2 km gacha) kuchli nurlanish manbalarining (televidenie va radiouzatgichlar va boshqalar) yo'qligini ta'minlash kerakligi ta'kidlangan.



4-rasm. Muruntov geodezik tarmog'ida GNSS o'lchashlarga elektromagnit to'lqin ta'sirini modellashtirish.

Ushbu geodezik punkt yaqinida katta kuchlanishli elektr tarmog'i (15 m masofada metall stolba 35 kV.) o'tganligi sababli sun'iy yo'ldoshdan GNSS qabul qilgichga kelayotgan radio to'lqinning sinishi (buzilishi) natijasida PDOP qiymati katta bo'lishini ko'rishimiz mumkin. Buni quyidagicha modellashtirishimiz mumkin (4-rasm a, b). 4-rasmdan ko'rinib turibdiki, Muruntov karyeri sanoat zonasi hududida

joylashgan davlat geodezik tarmog‘ining 4-sinf punktida (Kanavniy) GNSS o‘lchashlarga ko‘ptarmoqli radioto‘lqin ta‘sirini modellashtirish natijalari asosida olingan ma‘lumotlarga asoslanib shuni ma‘lum qilish mumkinki, bu punktdan sun‘iy yo‘ldosh geodezik tarmog‘ini qurishda foydalanish mumkin emas, lekin klassik geodezik tarmoqda ushbu punktdan foydalanish mumkin degan xulosaga kelish mumkinligi aniqlandi.

Muruntov geodezik tayanch tarmog‘i loyihasining optimal variantini tanlash va optimallashtirish parametrlarning aniqligini tahlil qilish maqsadida uch xil variantlarda geodezik tarmoq loyihalari modellashtirildi va eng kichik kvadratlar usulidan foydalangan holda optimallashtirish parametrlarining aniqligi baholandi (2-jadval).

2-jadval

Muruntov karyeri sanoat zonasi hududida loyihalangan geodezik tayanch tarmog‘ini optimallashtirish parametrlarining aniqligi baholash natijalari

MGT qurish variantlari	MGT qurish usullari	Chiziq uzunligini aniqlashning O‘KX $m_S (sm)$	Punktlarning o‘zaro joylashuv pozitsiyasining O‘KX $m_{I-J} (sm)$	Eng zaif punktning O‘KX $m_I (sm)$
Normativ talablar		1/200 000	5	10
1	Triangulyatsiya	$m_{S(6-8)} = 5,0$ 1/79 000	$m_{16-18} = 6,2$ 1/66 000	$M_{27} = 14,3$
2	Chizikli – burchakli tarmoq	$m_{S(13-14)} = 0,7$ 1/386 000	$m_{11-12} = 3,1$ 1/119 000	$M_{27} = 8,6$
3	Sun‘iy yo‘ldosh geodezik tarmog‘i	$m_{S(13-14)} = 0,4$ 1/772 000	$m_{13-14} = 0,5$ 1/519 000	$M_{28} = 0,8$

2-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, Bu qiymatlar 1 sinf uchun belgilangan me‘yoriy qiymat $\pm 1-2.5sm$, nisbiy aniqlik 1/500000 ekanligini e‘tiborga oladigan bo‘lsak GNSS o‘lchashlarda olingan qiymatlar me‘yoriy qiymatlardan 5 barobar aniq ekanini ko‘rishimiz mumkin.

GNSS dan foydalanib o‘lchagan ma‘lumotlar asosida Muruntov geodezik tarmog‘ining eng zaif elementlarining aniqligini baholash natijalari yuqori aniq va boshqa usullarga nisbatan afzaldir. Jumladan, normativ texnik hujjatlar talablariga javob beradigan va keyingi bosqichlarni qurish imkoniyatini ta‘minlaydigan parametrlarning eng yuqori aniqligi tarmoq versiyasida amalga oshirilgan GNSS qurilishiga xosligi isbotlandi.

Dissertatsiyaning “**Geodezik tarmoqlarning aniqligini oshirish algoritmini ishlab chiqish**” deb nomlangan uchinchi bobida karyer geometrik markazi uchun ordinata o‘qi bo‘ylab tuzatmalarni hisoblash, karyer atrofidagi geodezik tarmoq punktlarning fazoviy koordinatalarini hisoblash, Muruntov karyeri sanoat zonasi hududida geodezik tarmoq uchun bazis yaratish va tarmoqni sun‘iy yo‘ldosh tarmog‘iga bog‘lash, karyer hududining geoid balandligini hisoblash, karyer relyefini 3D modelini yaratish ishlari amalga oshirilgan.

Tadqiqot davomida ilmiy – texnik, topo-geodezik ma‘lumotlarga asosan Muruntov karyeri sanoat zonasi hududiga tegishli aksariyat kartalarning matematik asosi, SK-42 koordinatalar tizimida, tekislik to‘g‘ri burchakli Gauss-Kryuger proyeksiyasida 70-90 yillarda ishlab chiqilganligini ta‘kidlangan. GNSS o‘lchashlarining natijalari esa tekislik to‘g‘ri burchakli WGS-84 koordinata tizimining

Merkator proyeksiyasiga asoslangan koordinatalar aniqlanadi. Ushbu ikkita proyeksiyaning har birining afzalliklari va kamchiliklari mavjud. Kartografik proyeksiyalardan foydalanishning asosiy mezonlari buzilish miqdori hisoblanadi.

Muallif parallel yoyi uzunligi L va ordinata o'qi y orasidagi farq $y-S_n$ buzilishlarini aniqladi va ikkita Gauss-Kryuger va Merkator proyeksiyalarida mutlaq chiziqli deformatsiyani hisoblab chiqdi. Uzunlikdagi buzilish $y-S_n$ Simpson va Runga – Kutti usullari va ularning modifikatsiyalaridan foydalanib quyidagi formulalar yordamida hisoblanadi (1, 2, 3):

$$\left. \begin{aligned} x &= 63675584969 \frac{B''}{\rho''} - \left\{ a_0 - [0.5 + (a_4 + a_6 l^2) l^2] N \right\} \sin B \cos B \\ y &= [1 + (a_3 + a_5 l^2) l^2] N \cos B \end{aligned} \right\} (1)$$

bu yerda l - ma'lum bir nuqtaning uzunliklari va zonaning o'q meridianining radian o'lchovidagi farqi;


N – birinchi vertikalning egrilik radiusi.

Parallel yoyi uzunligi S_n Simpson usuli bo'yicha quyidagicha ifodalanadi:

$$S_n = \frac{l''}{\rho''} N \cos B \quad (2)$$

bu yerda M – meridian bo'ylab egrilik radiusi.

O'lchash natijalari asosida Gauss-Kryuger (SK-42) va Merkator (WGS-84) proyeksiyalari o'rtasida qiyosiy tahlil o'tkazildi. Ushbu proyeksiyalarning har biridagi farqlar qiymatlari hisoblab chiqildi (5-rasm).



5-rasm. Muruntov karyerning geometrik markazi uchun “y” koordinataning buzilish qiymatlarining o'zgarish grafigi

5–rasmdan ko'rinib turibdiki, ordinataning buzilish qiymatlarini o'zgartirishiga e'tibor beradigan bo'lsak, SK-42 koordinata tizimiga nisbatan WGS-84 koordinata sistemasidagi farq katta ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Muruntov karyeri sanoat zonasi hududidagi geodezik tayanch tarmog'i aniqligini oshirish va tarmoqni DSYGT (CORS bazasi) ga bog'lash maqsadida GNSS dan foydalanib punktlar orasidagi vatarlar (GNSS vektorlar)ni differensial o'lchash usulining quyidagi formulasi yordamida hisoblandi:

$$D_{ij} = \sqrt{(X_j - X_i)^2 + (Y_j - Y_i)^2 + (Z_j - Z_i)^2} ; \quad (3)$$

Geodezik tarmoqni tenglashtirishning keng tarqalgan usullaridan biri o'lchashlarning aniqligi haqida ma'lumot beruvchi stoxastik modeldir. Har bir seans


uchun asosiy bazislarni ketma-ket qayta ishlashda kovariatsion matritsasi cov_{xyz} bilan koordinatalar quyidagi formula yordamida hisoblandi:

$$\text{cov}_{xyz} = \begin{pmatrix} \sigma_{xx} & \sigma_{xy} & \sigma_{xz} \\ \sigma_{yx} & \sigma_{yy} & \sigma_{yz} \\ \sigma_{zx} & \sigma_{zy} & \sigma_{zz} \end{pmatrix} \Rightarrow \text{cov}_{xyz} = \begin{pmatrix} 0,000216093 & 0,000325664 & 0,000325534 \\ 0,000325664 & 0,000812527 & 0,000623375 \\ 0,000325534 & 0,000623375 & 0,000706453 \end{pmatrix} \quad (4)$$

(4) formuladan ko‘rinib turibdiki, diagonal elementlar geosentrik koordinatalar sistemasidagi koordinatalar aniqligining dispersiyasini ifodalaydi.

